

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Abdullayev	
Jismoniy madaniyat fani dasturlarini takomillashtirish muammolari	105
T.A.Akbarov	
O'rta maktab o'quvchilari jismoniy tarbiyasini baholash va monitoring jarayonlarini pedagogik tahlil qilish	109
N.A.Qosimov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy sifatlarini harakatli o'yinlar yordamida rivojlantirishning samarali usullari.....	114
T.A.Xasanov	
Harbiy ta'lim fakulteti talabalarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda innovatsiyalar.....	118
R.R.Abdusatorov	
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda bolalarning jismoniy tarbiya jarayonlarini optimal tashkil etish metodlari	126
M.M.Yuldashov	
Sog'lom turmush tarzini jamiyatda targ'ib qilishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari.....	132
G.K.Yakubova	
Sport tibbiyotida fiziologik nazorat usullari va funksional baholash metodlari	137
B.Q.Sobirjonov	
Raqamli ta'lim tizimida ilmiy-pedagogik yondashuv asosida ma'lumotlarni tahlil qilish	143
G.Q.Muxamadaliyeva, M.R.Akbaraliyeva	
Tabiiy va sun'iy tolalarni o'quvchilarga o'rgatishda steam va smart metodlari orqali o'qitish samaradorligini oshirish	146
E.Y.Raximova	
Davolash jismoniy tarbiyasini qo'llash orqali o'pkadagi kislorod almashinuvini meyorlashtirish ...	150
K.K.Babayev	
Inson organizmining qarish jarayonidagi metabolik mexanizmlar va ularni sekinlashtirishda jismoniy faollikning roli	156
Z.R.Raxmonova	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining suggestiv kompetentligini rivojlantirishning metodologik jihatlarini	160
A.I.Yuldashev	
Genderli yondashuv asosida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning pedagogik tamoyillari ..	164
A.H.Saipova	
Bolalar adabiyotining nutqiy rivojlanishdagi o'rni	169
T.T.Yusupov	
Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik jarayonida mushak guruhlarini kompleks rivojlantirishning ahamiyati	172
A.R.Hamroqulov	
Harakatli o'yinlarni jismoniy tarbiya faniga integratsiya qilish orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirish.....	177
N.A.Sultanov	
"Musika to'garaklarida innovatsion yondashuv: kross-platforma texnologiyalarining ahamiyati va amalga oshirish tajribasi".....	184
M.E.Djuraev	
Futbolchilar tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishda mashg'ulotlarni rejalashtirish	189
M.Sh.Suyarov	
Usmle dasturida bo'lajak shifokorlar klinik kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik jihatlarini.....	196
B.D.Raximov	
Huquqni muhofaza qilish organlar tuzilmalari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini oshirish usullarini o'rganish	201
A.S.Yuldashev	
Tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	205
M.O.Erkaboyev	



UDK:

**GENDERLI YONDASHUV ASOSIDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING
PEDAGOGIK TAMOIYILLARI****ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ФИЗИЧЕСКОГО
ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА****PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF ORGANIZING PHYSICAL EDUCATION LESSONS
BASED ON A GENDER-SENSITIVE APPROACH****Yuldashev Ikromjon Abdulazizovich** 

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya

Jamiyatda ayol va erkak o'rtasidagi munosabat, avvalo milliy madaniyatning xususiyatlari bilan belgilanadi va jamiyat o'zgarishlariga, hayot sharoitlariga mos ravishda takomillashib boradi. Bizning mamlakatimizda ayol va erkakning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini va mavqei bor. Xotin-qizlarning o'z iste'dodi va qobiliyatini ro'yobga chiqarish uchun berilayotgan imkoniyatlar gender munosabatlarning takomillashuvi bilan bir qatorda, ayolni e'zozlash, unga bo'lgan hurmat va e'tibor kabi uning milliy o'ziga xosligini saqlab qolishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Аннотация

Отношения между женщиной и мужчиной в обществе прежде всего определяются особенностями национальной культуры и совершенствуются в соответствии с изменениями в обществе и условиями жизни. В нашей стране женщина и мужчина имеют своё место и положение в социальной жизни. Возможности, предоставляемые женщинам для реализации своего таланта и способностей, наряду с совершенствованием гендерных отношений также оказывают влияние на сохранение национальной самобытности женщины, такой как её почитание, уважение и внимание к ней.

Abstract

Relations between women and men in society are primarily determined by the characteristics of national culture and evolve in accordance with societal changes and living conditions. In our country, women and men have their own place and status in social life. The opportunities provided for women to realize their talents and abilities, alongside the improvement of gender relations, also influence the preservation of women's national identity, such as their reverence, respect, and attention toward them.

Kalit so'zlar: Genderli yondashuv, tamoyil, jismoniy tarbiya, dars jarayoni, pedagogik asos.**Ключевые слова:** Гендерный подход, принцип, физическое воспитание, процесс урока, педагогическая основа.**Key words:** Gender-sensitive approach, principle, physical education, lesson process, pedagogical foundation.**KIRISH.**

Erkaklar va ayollarning siyosat, iqtisodiyot va jamiyatda teng ishtirok etishlari uchun samarali choralar ko'rish, faol siyosat olib borish ham xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishda sezilarli ijobiy natijalarga erishishga olib keladi

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy adabiyotlar tahlili o'g'il-qizlardagi quyidagi farqlarni aniqlashimizga asos bo'la oladi. O'g'il bolalar: Birichidan, ota-onalar ham, olimlar ham – erta yoshdagi o'g'il bolalar, o'zlari bilan tengdosh bo'lgan qiz bolalardan 2-3 yilga aqliy va jismoniy jihatdan ortda qolishlarini yaxshi bilishadi: ularning chap yarim sharlari sekinroq o'sadi. Shuning uchun maktablardagi ta'lim tizimi qizlarga qaratilgan. "Doska"ga chiqib javob berayotganingda ustingdan kulishsa, uyat va sharmandalik. Mana shunday tarzda omadsiz shaxs kompleksi rivojlanib boradi hamda o'z tengqurlari va kattalarga nisbatan tajovuzkorlik paydo bo'ladi.

Ikkinchidan, turli xavf-xatarlarga intilish, iroda va ruhiyatni sinash, birinchi bo'lishni xohlash, qahramon bo'lish, mustaqil qaror qabul qilish – bu o'g'il bolalar tabiatiga xosdir. Agarda ular tayyor

qarorlarni takrorlashga va tinchgina o'tirishga majburlansa, haqiqiy erkak kishilarni qanday qilib tayyorlash mumkin?

Uchinchidan, o'g'il bolalar o'zlari bilim izlab topishga intiladi. Ular vazifani bosqichma-bosqich bajarmay, balki o'zlari o'ylab ko'rishga va bajarishga harakat qilishadi, ular o'qituvchining so'zlaridan qoidani o'zlari chiqarib olishni istaydilar. Shuning uchun, har bir vazifa – bu, butun boshli sarguzasht. Ularning anglashi ko'proq mantiqiylik, obrazli, hissiy bo'ladi. O'g'il bolaga muammoli xarakterga ega masalalar yoqadi va u birinchilardan bo'lib javob berish uchun faol ravishda yechim topishga kirishib ketadi. O'g'il bolalar sinflarida o'zlarining yetakchilik xususiyatlarini ishga soladilar;

To'rtinchidan, qiz bolalarning yo'qligida, o'g'il bolalar o'z fikrlarini aytishdan uyalishmaydi, hatto, fikrlari umumiy qabul qilingan fikrlarga zid bo'lsa-da, uni ifoda etishlari mumkin.

Beshinchidan, doimiy shovqin va shov-shuvlar meyordagiday bo'lsa-da, o'g'il bolalar bunday sinflarda kam tajovuzga moyil bo'ladilar.

Oltinchidan, qiz bola bor paytda, har bir o'g'il bola o'zini ko'rsatishga harakat qiladi. Bu yerdagi xolatda esa har kim teng va bolaning o'zini ko'rsatish harakati yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilishi mumkin.

Yetinchidan, o'g'il bolalar o'z qadrlarini bilib, shunga munosib ravishda o'zlarini tutadilar. Agar o'g'il bolalar sinfiga yangi bola kelib qo'shilsa u ilgarigi qanay bo'lishidan qat'iy nazar, o'g'il bolalarning o'zlari uni tezda qayta tarbiyalab qo'yishar ekan.

Sakkizinchidan, o'g'il bolalar aloxida sinflarda oliftagarchiligini namoyish etishlari uchun hech kim topilmaganidan keyin, o'qituvchi bilan bekorga tortishishdan ma'no yo'q.

Qiz bolalar: Birinchidan, qizlar muloqotda uyatchan va o'rganishda astoydil harakat qilishadi. Ular uchun tafsilotlar va jarayonning o'zi muhim. Garchi ular standart topshiriqlarni yaxshi o'zlashtirishsa-da, ular berilgan algoritmnii osonlik bilan yechishsa-da, shuningdek, ko'proq vazifalarni bajarishga ulgurishsa-da, ular o'g'il bolalardan uyalib turishadi va ba'zida shunday vaziyatlarda sinf bo'sh xonaga o'xshab qoladi;

Ikkinchidan, o'g'il bolalar bo'lmaganda, qizlar ko'proq o'zlarini erkin va qulay his qiladilar, qo'llarini ko'tarib javob berishdan tortinishmaydi, xatolar qilishdan cho'chishmaydi, bir-birlariga mamnuniyat bilan ko'maklashadi va hech qanday masxara qilinishdan qo'rqmaydilar;

Uchinchidan, qizlar «jamoaviy» shaklda vazifalarni yechish tarafdorilar;

To'rtinchidan, qizlar zudlik bilan o'zaro rollarni taqsimlashadi, bir-birlari bilan ko'p maslahatlashishadi va birgalikda yechim topishadi. Individual topshiriqlarda ular to'g'ri javobni bilsalar ham, o'zlari ikkilanib harakat qilishadi;

Beshinchidan, qiz bolalarni garchi xatolari bo'lishiga qaramay, maqtash kerakligini, aks holda o'z qobiqlariga o'ranib olishlari va keyingi safar javob berishdan qo'rqishi mumkin. O'g'il bolalar bunday yondashuvni tushunishmaydi.

Oltinchidan, aloxida sinflarida qizlar osonroq muloqot qilishadi.

O'g'il bolalar va qiz bolalarning gender sifatlaridagi umumiylik:

Birinchidan, gender sinflarda o'g'il va qizlar alohida ta'lim olishadi, lekin tarbiya aralash – faqat darslar davomida alohida-alohida bo'lishadi. Vaqtning qolgan qismida: dam olish vaqtida, jismoniy tarbiya paytida, oshxonada, ekskursiyalarda va darsdan tashqari tadbirlarda bolalar bir-biri bilan muloqot qilishadi.

Ikkinchidan, psixologlar kuzatishlari, soxa xodimlari va shaxsiy kuzatishlar shu narsadan dalolat bermoqdaki, agar o'quvchilar o'rtasida qarama-qarshi jins vakillari bo'lsa, har qanday o'g'il yoki qiz, hatto, ongsiz ravishda bir-birida qandaydir taassurot qoldirishga harakat qilishadi va darsdan chalg'ishadi, diqqat konsentratsiyasi kamayadi.

Uchinchidan, alohida sinflarda bolalarning sog'lig'i yaxshi va o'zlari ko'rkam ulg'ayishi bolalar shifokorlari tamonidan aniqlanagan (o'g'il bolalar bukchaymagan, bolalarda kasallikka moillik past).

To'rtinchidan, aralash sinflarda, birinchi olti oyda bolalar vazn yo'qotishadi bu hayajon (stress) va moslashish natijasidir. Bunday xolat alohida sinflarda sodir bo'lmaydi.

Ta'lim va tarbiyada genderli yondoshuv ancha kengroq ma'noga ega. O'g'il bolalar va qiz bolalarning bilish mexanizmlarini hisobga olishni nazarda tutib, u erkak va ayol individualligini ochish va rivojlantirish, jinslar orasida garmonik (uyg'un) munosabatlar yaratilishiga e'tiborni jamlaydi.

NATIJA VA MUHOKAMA

PEDAGOGIKA

Ta'lim jarayonida gender yondashuvining qo'llanilishi bolalarda turli shaxslarning o'ziga xos dunyoqarashi, tafakkur mantig'i va hissiy kechinmalarini anglash, ularga mos ravishda munosabat bildirish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv alohida ta'lim shakllarini rad etmaydi, aksincha, pedagogika va psixologiya fanlaridagi ilg'or g'oyalar, tarixiy tajribalar hamda zamonaviy metodik yondashuvlarni uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Bunda asosiy e'tibor bolalar individual psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirish va moslashuvchan fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

Zamonaviy jamiyatda qabul qilingan sotsial standartlar, xususan gender tengligi, madaniy xilma-xillik va sog'lig'i cheklangan shaxslar imkoniyatlarini hisobga olish tamoyili ta'lim tizimida ham o'z ifodasini topishi zarur. Agar ta'lim maqsadlari va natijalari shaxsning jamiyatga integratsiyalashuvi uchun real imkoniyat yaratmasa, aksincha, ijtimoiy segmentatsiya yoki strukturaviy zo'ravonlikka sabab bo'lsa, bu pedagogik jarayonning samaradorligi pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan ta'lim standartlari quyidagi mezonlar asosida qayta ko'rib chiqilishi lozim (1-chizma) [3].



1-chizma. Ta'lim standartlari mezonlari


Ta'lim muassasalarida qadriyatlar va maqsadlar tizimiga «ayollik» va «erkaklik» kabi genderga oid antropologik xususiyatlarni kiritish ta'lim tizimida yangicha pedagogik yondashuv — genderli maktab modelini shakllantirish imkonini beradi. Bu model o'quvchini shaxs sifatida har tomonlama rivojlantirish, uning individual «xos xarakteristikalarini» inobatga olish hamda ta'lim-tarbiya jarayonini mos ravishda yangilash va adaptatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Muammoning nazariy jihatdan chuqur tahlili va dastlabki amaliy tajriba gender yondashuv asosida shakllangan ta'lim modelining asosiy tamoyillarini quyidagicha belgilash imkonini beradi (2-chizma) [3]:

Jismoniy, psixologik, ijtimoiy va ma'naviy salomatlikni ta'minlash tamoyili – o'quvchining sog'lom hayot tarziga sodiqligini oshirishga qaratiladi;

Tabiatga muvofiqlik tamoyili – shaxsiy individuallikni anglash, jinsiy identifikatsiyani shakllantirish va jinslar o'rtasida madaniyatli munosabatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi;

Majmuaviylik tamoyili – integrativ ta’lim dasturlaridan foydalanish, gender omillarni inobatga olgan metod va vositalarni joriy qilish, pedagogik muhitni yangilash orqali amalga oshiriladi;
Ijtimoiylik tamoyili – o’quvchilarni shaxslararo munosabatlarni konstruktiv tarzda shakllantirish, muammoli vaziyatlarda moslashuvchan xatti-harakat strategiyalarini tanlashga o’rgatadi.



2-chizma. Gender yondashuv asosida shakllangan ta’lim modelining asosiy tamoyillari

Ushbu tamoyillarning qo'llanishi bir jinsli sinflarda tahsil olayotgan o'quvchilar uchun psixologik-pedagogik jihatdan muhim umumiy xususiyatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Jumladan, o'quv jarayonida psixologik to'siqlarning kamayishi, jismoniy va ma'naviy kamolotga intilish, erkak va ayol shaxsiyatining betakrorligi va tengligini anglash, jinslar o'rtasida o'zaro hurmat va do'stona munosabatlarni shakllantirish, o'z kuchiga ishonch va shaxsiy imkoniyatlarni erkin namoyon etish kabi fazilatlar ko'zga tashlanadi.

Shu bilan birga, gender yondashuv ta'lim jarayonida adolat, teng imkoniyatlar va insonparvarlik prinsiplarini mustahkamlaydi. Bunday yondashuvda o'quvchi nafaqat bilim oluvchi subyekt, balki ijtimoiy faol, o'z fikriga ega shaxs sifatida shakllanadi. Natijada, ta'lim tizimi jamiyatda gender tengligini ta'minlashga xizmat qilib, inson kapitalining barkamol rivojiga yo'l ochadi.

XULOSA

Ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuv nuqtai nazaridan baho berilganda, odatdagi maktab sharoitida yuqori samaradorlikka erishish imkoniyati cheklanganligi ayon bo'ladi. Chunki ko'pchilik umumta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayonining asosiy vektori asosan nazariy bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, bunda bolalarning individual psixologik xususiyatlari, ijtimoiy-emotsional rivojlanish ehtiyojlari va gender tafovutlari yetarlicha hisobga olinmaydi. Aksariyat hollarda «qancha erta o'rgatilsa, shuncha yaxshi» tamoyili ustuvor bo'lgani uchun ta'lim mazmuni ko'proq intellektual yuklama berishga yo'naltiriladi. Bu esa boshlang'ich sinflarda o'ta sinchkov, aqli o'tkir o'quvchilarni vaqt o'tishi bilan psixologik bosim ostida qolishiga, iroda kuchi zaiflashgan o'rtacha darajadagi o'quvchilarga aylanishiga olib kelishi mumkin.

Hayotiy tajriba shuni ko'rsatadiki, maktabda «a'lochi» bo'lgan o'quvchi keyingi ijtimoiy hayotda har doim ham muvaffaqiyatli bo'lavermaydi. Buning sababi shundaki, an'anaviy ta'lim modelida o'quvchida mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarda moslashuvchan strategiyani tanlash kabi hayotiy zarur kompetensiyalar ongli ravishda shakllantirilmaydi. Aksincha, o'quvchi tizim talablariga moslashgan holda bilimni passiv ravishda o'zlashtiradi. Bu jarayonda

PEDAGOGIKA

shaxsning ichki potentsiali, kreativ salohiyati, tashabbuskorligi va yetakchilik qobiliyatlari yetarli darajada rivojlantirilmaydi.

Alohida e'tibor berilishi kerak bo'lgan jihatlaridan biri — qizlar va o'g'il bolalarning yoshga xos psixologik va fiziologik farqlari ta'lim jarayonida inkor qilinmasligi zarur. Agar bu omillar hisobga olinmasa, o'quvchilarning tabiiy qobiliyatlari to'laqonli namoyon bo'lmasligi, jinsga xos rivojlanish imkoniyatlari chekalanishi mumkin. Zero, qiz bolalar ko'proq emotsional idrok va ijtimoiy aloqalar orqali o'rganishga moyil bo'lsa, o'g'il bolalarda faol harakat, raqobat va faoliyat orqali motivatsiya kuchliroq namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida bu psixologik tafovutlar hisobga olinmaganda, o'quvchi o'z qobiliyatini to'la namoyon eta olmaydi va bu kelgusida shaxsiy rivojlanishining sustlashuviga sabab bo'lishi mumkin.

Shu boisdan, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda an'anaviy bilimga yo'naltirilgan o'qitish modelidan voz kechib, shaxsga yo'naltirilgan, genderni moslashtirilgan va kompetensiyaga asoslangan ta'lim tizimiga o'tish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim jarayoni o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga — intellektual, psixologik, emotsional, jismoniy va ijtimoiy faollikka yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Bu jarayonda o'quvchining individual qobiliyatlari va gender xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning mustaqil fikrlashini, ijodkorlikni, o'ziga ishonchni hamda ijtimoiy moslashuv qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, odatdagi maktabda ta'lim jarayonini faqat bilimlarni o'rgatishga qaratilgan holda tashkil etish o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishida cheklovlar keltirib chiqishi mumkin. Shu sababli, ta'lim tizimida individual, gender va psixologik yondashuvlarni joriy etish — ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, kelajakda jamiyatda muvaffaqiyatli bo'la oladigan yetuk shaxslarni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

11. Asomova R.S. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi: Avtoref. psix. fan. nom. ... diss. – Toshkent: 2002. – 28 b.

12. Авксентьев Е.Н. Формирование готовности студентов педагогических вузов физкультурно-спортивной деятельности: автореф. дис. ... канд. пед. наук // Авксентьев Евгений Николаевич; Чуваш. гос. пед. ун-т им. И.Я.Яковлева. – Чебоксары, 2004. – 22 с.

13. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped.fan dok. Diss... aftoreferat. Toshkent.: 2007. – 132 s.

14. Нишонов С. Воспитание совершенного человека в развитии педагогической мысли эпохи возрождения Востока: Автореф. дисс...док.пед.наук. – Т.: 2008. – С.37;

15. Қуронов М. Ўзбекистон умумий ўрта таълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Пед.фан.докт. ... дисс. – Т.: Турон-Иқбол, 2006. – 592 с.

16. Осокин Г.В. Основы профессиональной подготовки педагога к развитию физической культуры в учебно-тренировочном процессе: дис. д-ра пед. наук. Г.В.Осокин. – Москва, 2010. – 89 с.